O‘zbekistonning korrupsiyaga qarshi siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan seminar

2025 25 Aprel

25-aprel kuni “Uzbekistan Airways” aksiyadorlik jamiyatida “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining 2025-yil 5-martdagi yig‘ilishida belgilangan mamlakatda korrupsiyadan xoli muhitni yanada shakllantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi vazifalar” mavzusida O‘zbekistonning korrupsiyaga qarshi siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan seminar bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri maslahatchisining 2025-yil 15-apreldagi 07-15-1-sonli topshirig‘i ijrosi yuzasidan tashkil etilgan tadbirda aviakompaniyaning tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari va xodimlari ishtirok etdi.

UZBEKISTAN
AIRWAYS

Seminar davomida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan korrupsiyaga qarshi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, jumladan, barqaror korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish, davlat va korporativ tuzilmalar faoliyatida shaffoflikni oshirish, shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish zarurligi batafsil ko‘rib chiqildi.

UZBEKISTAN
AIRWAYS
ЭЪТИБОРИНГИЗ УЧУН
РАҲМАТ

Korrupsiyaga qarshi milliy tashabbuslarni amalga oshirishda korporativ sektorning roliga alohida e’tibor qaratildi. Seminar ishtirokchilari ichki nazorat tizimini takomillashtirish bo‘yicha aniq qadamlarni muhokama qildilar va korrupsiyadan xoli muhitni yaratish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan fikr almashdilar.

Tadbir yakunida ishtirokchilar korrupsiyaga qarshi intizomni mustahkamlash bo‘yicha sa’y-harakatlarni faol qo‘llab-quvvatlash va davlat tomonidan belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ko‘maklashishga tayyor ekanliklarini bildirdilar.

Seminarni Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi yetakchi inspektori Nodira Samandarova olib bordi.